



Improving the methodology for enhancing the professional responsibility of future speech therapists during pedagogical practice

Gulshodakhon KAYUMOVA¹

Chirchik State Pedagogical University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025
Received in revised form
10 April 2025
Accepted 2 May 2025
Available online
25 June 2025

Keywords:

speech therapist,
pedagogical practice,
professional responsibility,
methodology,
moral qualities,
attitude,
field of speech therapy,
relevance,
competencies.

ABSTRACT

This article addresses the issues of improving methodologies to enhance the professional responsibility of future speech therapists. It outlines methodological approaches aimed at developing their professional and ethical qualities, sense of responsibility, and attitude towards the profession during the process of pedagogical practice.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp120-124>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak logopedlarning kasbiy mas'uliyatini oshirish metodikasini takomillashtirish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

logoped,
pedagogik amaliyot,
kasbiy mas'uliyat,
metodika,
axloqiy fazilat,
munosabat,
logopediya sohasi,
dolzarbligi,
kompetensiyalar.

Mazkur maqolada bo'lajak logopedlarning kasbiy mas'uliyatini oshirish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Pedagogik amaliyot jarayonida ularning kasbiy-axloqiy fazilatlarini, mas'uliyatlilik hissi va kasbga bo'lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar bayon etilgan.

¹ Independent researcher, Chirchik State Pedagogical University.

Совершенствование профессиональной деятельности логопедов в процессе педагогической практики

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

логопед,
педагогическая практика,
профессиональная
ответственность,
методика,
нравственные качества,
отношение,
область логопедии,
актуальность,
компетенции.

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики повышения профессиональной ответственности будущих логопедов. Описаны методические подходы, направленные на формирование их профессионально-нравственных качеств, чувства ответственности и отношения к профессии в процессе педагогической практики.

KIRISH

Bugungi kunda logopediya sohasi o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar sonining ortib borayotgani bo'lajak logopedlarning kasbiy tayyorgarligiga yuqori talablar qo'yadi. Xususan, pedagogik amaliyot jarayonida ularning kasbiy mas'uliyatini oshirish, o'z kasbiga sadoqatli bo'lish, axloqiy-me'yoriy qadriyatlarga amal qilishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada logopedlar kasbiy mas'uliyatini oshirishda qo'llaniladigan metodikalar, pedagogik amaliyotning mohiyati va mazmuni, kasbiy kompetensiyalar, shaxsiy va ijtimoiy javobgarlik, hamda kasbiy faoliyatga tayyorlik ko'nikmalari yoritiladi. Har bir metodika asosida amaliyotchi talabalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar, kuzatuvlar va tahlillar keltiriladi. Bo'lajak logopedlarning kasbiy mas'uliyatini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu masala doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik amaliyot jarayoni kasbiy tayyorgarlikda muhim bosqich hisoblanadi. Mas'uliyatni oshirishning samarali metodlari va yondashuvlarini ishlab chiqish orqali logopedik faoliyatga bo'lgan yondashuvni takomillashtirish mumkin.

MUHOKAMA

Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak logopedlar uchun kasbiy mas'uliyatni shakllantirish va oshirish pedagogik amaliyotning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ular nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirishlari, pedagogik etikani hurmat qilishlari, bolalar va ularning ota-onalari bilan muloqot qilish madaniyatiga ega bo'lishlari zarur. Kasbiy mas'uliyatni oshirish metodikasini takomillashtirish uchun quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi. Amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar bilan bevosita ish olib borish: bu orqali bo'lajak logopedlar real muhitda o'zini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Reflektiv tahlil metodidan foydalanish: har bir dars yoki amaliyotdan so'ng mustaqil tahlil qilish orqali o'z ustida ishlash ko'nikmasi shakllantiriladi. Mentorlik tizimini joriy etish: tajribali logopedlar tomonidan amaliyotdagi talabalarga maslahatlar berilishi, ularning faoliyatini tahlil qilishga yordam berilishi. Kasbiy etika va muloqot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha seminar-treninglar tashkil etish. O'z-o'zini baholash va o'z ustida ishlash bo'yicha topshiriqlar asosida talabaning mas'uliyat darajasi oshiriladi. Pedagogik amaliyotda bo'lajak logopedlarning kasbiy mas'uliyatini oshirishda takrorlanmaydigan yangi yondashuvlardan bir raqamli

diagnostika bo'lib, bo'lajak logopedlarning kasbiy tayyorgarligini baholashda raqamli diagnostika vositalaridan foydalanish yangi metodik yondashuv sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Logopedik amaliyotda AI (sun'iy intellekt) asosida yaratilgan platformalar orqali talabalar faoliyatining xolis tahlili mumkin bo'ladi. Bu tahlillar real vaqt rejimida berilib, talabaning kuchli va zaif jihatlarini aniqlashda yordam beradi. Kase-analiz asosida individual rejalashtirishda esa har bir talaba uchun individual ta'lim rejasini ishlab chiqish – ularning ehtiyojlari, bilim darajasi va amaliyotdagi holatga mos tarzda shakllantiriladi. Kase-analiz orqali talaba duch keladigan muammoli vaziyatlar o'rganiladi va pedagogik maslahatlar ishlab chiqiladi. Bu esa talabaning kasbiy mas'uliyatini oshirishga yo'naltirilgan samarali strategiyani shakllantirish imkonini beradi. Gamifikatsiyalangan baholash usullarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida gamifikatsiyalangan baholash elementlari (ball tizimi, interaktiv testlar, logopedik kvestlar) yordamida talabalar rag'batlantiriladi. Bu esa ular orasida sog'lom raqobat muhitini yaratib, amaliyotga bo'lgan mas'uliyat hissasini kuchaytiradi. Transversal ko'nikmalarni shakllantirishda bo'lajak logopedlar uchun muhim bo'lgan transversal ko'nikmalar – jamoada ishlash, kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, raqamli savodxonlik – amaliy mashg'ulotlarga integratsiyalash orqali o'rgatiladi. Bu metod bo'lajak mutaxassislarini nafaqat logopedik jihatdan, balki kompleks kasbiy tayyor holatga keltiradi. Real hayotga yaqinlashtirilgan loyiha asosida ta'lim. Talabalar guruh holatida muayyan logopedik muammoni hal etish bo'yicha loyiha ishlab chiqadilar.

Bu loyiha boshidan oxirigacha mustaqil fikrlash, strategik rejalashtirish va jamoaviy mas'uliyatni talab etadi. Bunday loyiha asosida o'qitish talabalarning real hayotga tayyorligini kuchaytiradi. Xulq-atvorni modellashtirish texnologiyasida logopedik vaziyatlarda to'g'ri muloqot yuritish, nizoli holatlarni boshqarish, ota-onalar bilan aloqalarni muvozanatli yuritish uchun maxsus rolli o'yinlar (hujjatli ssenariylar asosida) tashkil etiladi. Bu mashg'ulotlar kasbiy mas'uliyatni chuqurlashtirish va hissiy barqarorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning individual yondashuvi, psixologik holatini inobatga olish, stress holatlarini boshqarish, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. O'zaro mentorlik asosidagi o'rganish tizimida bo'lajak logopedlar o'zaro bilim almashish asosida mustaqil ravishda kichik mentorlik guruhlarini tashkil etishadi. Har bir guruh a'zosi biror ko'nikmaga mas'ul bo'lib, boshqalar bilan tajriba almashadi. Bu yondashuv mas'uliyat hissin oshirish, bilimni mustahkamlash va faoliyatda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Virtual amaliyot muhiti orqali simulyatsiyada logopedik amaliyotda sun'iy muhitda, ya'ni virtual simulyatsiyalar orqali mashg'ulot o'tkazish imkoniyati yaratiladi. Talabalar maxsus yaratilgan virtual logopedik vaziyatlarda turli xil bemor turlari bilan ishlashni simulyatsiya qilib, real amaliyotga tayyorlanadi. Refleksiv amaliyot jurnali yuritishda talabalar har bir amaliy darsdan so'ng o'z tajribalari, his-tuyg'ulari, muvaffaqiyat va xatolari haqida kundalik shaklida yozuv yuritadilar. Bu reflektiv yondashuv talabalarga o'z ustida ishlash, kasbiy jihatdan o'sish yo'nalishlarini aniqlash va ongli mas'uliyatni rivojlantirish imkonini beradi. Pedagogik kuzatuv asosida tahlil shuni ko'rsatish mumkin bo'lajak logopedlar tajribali mutaxassislar ishtirokida kuzatuv olib boradilar va har bir darsni professional mezonlarga ko'ra tahlil qiladilar. Bu faoliyat ularning kasbiy baholash ko'nikmalarini shakllantirib, o'z faoliyatini mustaqil tahlil qilishga yordam beradi. Kompetensiyaviy xarita asosida monitoring jarayonida

talabaniy kasbiy rivojlanishini baholashda individual kompetensiyalar xaritasi tuziladi. Unda logopedik faoliyat uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalar belgilanadi va o'sish dinamikasi kuzatib boriladi. Kasbiy etika kodeksini o'rganish va qo'llashda talabalarga logopedik faoliyatdagi kasbiy etikaga oid hujjatlar bilan ishlash o'rgatiladi. Etik muammolar muhokama qilinadi va rolli o'yinlar orqali to'g'ri qarorlar qabul qilish malakalari shakllantiriladi. "Ota-ona bilan muloqot" interaktiv modulida logopedik faoliyatda ota-onalar bilan samarali muloqot qilish uchun maxsus treninglar tashkil etiladi. Muloqot madaniyati, empatiya va tinglash ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Bo'lajak logopedlarning kasbiy tayyorgarligini baholashda raqamli diagnostika vositalaridan foydalanish yangi metodik yondashuv sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Logopedik amaliyotda AI (sun'iy intellekt) asosida yaratilgan platformalar orqali talabalar faoliyatining xolis tahlili mumkin bo'ladi. Bu tahlillar real vaqt rejimida berilib, talabaniy kuchli va zaif jihatlarini aniqlashda yordam beradi. Har bir talaba uchun individual ta'lim rejasini ishlab chiqish – ularning ehtiyojlari, bilim darajasi va amaliyotdagi holatga mos tarzda shakllantiriladi. Kase-analiz orqali talaba duch keladigan muammoli vaziyatlar o'rganiladi va pedagogik maslahatlar ishlab chiqiladi. Bu esa talabaniy kasbiy mas'uliyatini oshirishga yo'naltirilgan samarali strategiyani shakllantirish imkonini beradi.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida gamifikatsiyalangan baholash elementlari (ball tizimi, interaktiv testlar, logopedik kvestlar) yordamida talabalar rag'batlantiriladi. Bu esa ular orasida sog'lom raqobat muhitini yaratib, amaliyotga bo'lgan mas'uliyat hissasini kuchaytiradi. Bo'lajak logopedlar uchun muhim bo'lgan transversal ko'nikmalar – jamoada ishlash, kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, raqamli savodxonlik – amaliy mashg'ulotlarga integratsiyalash orqali o'rgatiladi. Bu metod bo'lajak mutaxassislarini nafaqat logopedik jihatdan, balki kompleks kasbiy tayyor holatga keltiradi. Talabalar guruh holatida muayyan logopedik muammoni hal etish bo'yicha loyiha ishlab chiqadilar. Bu loyiha boshidan oxirigacha mustaqil fikrlash, strategik rejalashtirish va jamoaviy mas'uliyatni talab etadi. Bunday loyiha asosida o'qitish talabalarining real hayotga tayyorligini kuchaytiradi. Logopedik vaziyatlarda to'g'ri muloqot yuritish, nizoli holatlarni boshqarish, ota-onalar bilan aloqalarni muvozanatli yuritish uchun maxsus rolli o'yinlar (hujjatli ssenariylar asosida) tashkil etiladi. Bu mashg'ulotlar kasbiy mas'uliyatni chuqurlashtirish va hissiy barqarorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak logopedlarning kasbiy mas'uliyatini shakllantirishda ushbu jihatlar muhim o'rin tutadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlar, psixologik yondashuvlar orqali kasbiy o'sishga erishish mumkin. Tajriba asosida ishlab chiqilgan metodlar va samarali texnologiyalar bu jarayonni yanada samarali qiladi. Bo'lajak logopedlarning kasbiy mas'uliyatini oshirish metodikasini takomillashtirish doimiy ravishda yangilanib borilishi, zamonaviy ta'lim yondashuvlariga asoslanishi kerak.

Shunday ekan, amaliyot jarayonini puxta rejalashtirish va samarali metodlardan foydalanish muhimdir. Xalqaro tajribalar, etika va psixologik barqarorlikni shakllantirish, kasbiy mas'uliyatga ta'sir qiluvchi omillar, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va yondashuv, pedagogik kuzatuv asosida natija olish va taqqoslashlar mavzusining asosiy jihatlari yoritiladi. Bo'lajak logopedlarning kasbiy mas'uliyatini shakllantirishda ushbu jihatlar muhim o'rin tutadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlar, psixologik

yondashuvlar orqali kasbiy o'sishga erishish mumkin. Tajriba asosida ishlab chiqilgan metodlar va samarali texnologiyalar bu jarayonni yanada samarali qiladi. Kasbiy mas'uliyatni oshirishga qaratilgan har bir faoliyat turi, talabaning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi, o'z ustida ishlashi, shuningdek, kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu jarayonda mentorlik, muammoli vaziyatlarni hal qilish, va reflektiv tahlil kabi metodlar muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova N. Logopediya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
2. Rasulov B. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. – Samarqand, 2020.
3. Usmonova D. Nutq terapiyasi metodikasi. – Toshkent, 2022.
4. Ganiev E. Kasbiy etik va pedagogik madaniyat. – Buxoro, 2019.
5. Ziyayeva F. Amaliy logopediya. – Toshkent: Fan, 2023.